

## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI

Raxmonqulova Nafisa Olimjon qizi

*Osiyo xalqaro universiteti Iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** urbanizatsiya, rekonstruksiya, raqamli iqtisodiyot, moddiy infratuzilma, diversifikatsiya, raqamlar dinamikasi.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbollari, bu sohada O'zbekistonda olib borilayotgan islohatlar, shart-sharoitlar haqida atroflicha fikr yuritildi. Maqolada raqamli iqtisodiyot atamasiga to'xtalib, uning mohiyatini ochib berishga harakat qilindi. Raqamli iqtisodiyotning bozor iqtisodiyotida tutgan o'rni belgilandi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Raqamli iqtisodiyotning negizlarini o'rganish XIX asr fan va texnologiyalar rivojlangan davr uchun asosiy mezonlardan biri sanaladi. Bu fakt aynan yashab turgan asrimizga xos va mos bo'lgan effektlardan biridir. Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot negizlarini o'rganish, uni hayotga tatbiq qilish eng dolzarb muammolardan biridir. O'zbekiston sharoitida raqamli iqtisodiyotga o'tish qiyin bo'lmadi, balki bu jarayon murakkab vositalar asosida kechdi. Biz ushbu jarayonni to'la anglab yetishimiz uchun, avvalo, iqtisodiyot atamasi nimayu raqamli iqtisodiyotning nima ekanligiga tushunib yetishimiz lozim.

Iqtisodiyot bu kundalik hayotimizda jamiyki narsalarni tejash demakdir. Doimiy o'sib borayotgan daromadlar insonning ehtiyojini ortishiga sabab bo'ladi. Demak ehtiyoj ortar ekan, iqtisodiy harajatlar ham ko'payadi.

Iqtisodiyot – bu ishlab chiqarish, taqsimlash va savdo, shuningdek, tovarlar va xizmatlarni iste'mol qilish sohasini o'rganish sohasi. Umuman olganda, u tanqis resurslarni ishlab chiqarish, ishlatish va boshqarish bilan bog'liq amaliyotlar, nutqlar va moddiy ifodalarni ta'kidlaydigan ijtimoiy soha sifatida belgilanadi.<sup>1</sup>

Iqtisodiyot atamasining nima ekanligini anglagan holda endi raqamli iqtisodiyot atamasini tushunishga harakat qilamiz. Raqamli iqtisodiyotga o'tgan har qanday davlat iqtisodiyotning rivojlanishi uchun harakat qiladi, iqtisodning asoslarini moliya bozorida deb biladi.

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dolzarb mavzulardan biridir. Raqamli iqtisodiyot atamasi birinchi bo'lib 1995-yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan. Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da xavf-xatar (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya

<sup>1</sup>James, Paul. Urban Sustainability in Theory and Practice: Circles of Sustainability. London: Routledge, 2015. 53 bet.

tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo'lmaydi.

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, kurrai zaminimiz umumiy boyligining 66 foizi – 365 trillion AQSH dollari inson kapitaliga, ya'ni asosan shaxsning ilm darajasiga to'g'ri kelmoqda. AQSHda ushbu ko'rsatkich milliy boyligining 77 foizi - 95 trillion dollarga yetgan. Shuning uchun davlatimiz rahbari joriy yil Murojaatnomada “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” degan fikrni alohida keltirib o'tdi.<sup>2</sup>

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi.”<sup>3</sup>

Haqiqatdan ham agar biz axborot texnologiyalarini chuqur o'rgansak va uni hayotda qo'llasak bu biz uchun eng aniq tanlangan yo'llardan biri bo'ladi. Raqamli tarmoqlar sohasida qilinayotgan, yaratilayotgan imkoniyatlarning son-sanog'i va chegarasi yo'qdir.

Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o'zaro muloqotni yanada tez va oson yo'lga qo'yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo'ldi. Iqtisodiyotning raqamli segmentiga tegishli bosh manba traksakcion sektorning o'sishidir. Rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich YaIMning 70 foizdan ortiq miqdorni tashkil etib, davlat boshqaruvi, konsalting va informatsion xizmat ko'rsatish, moliya, ulgurji va chakana savdo, shuningdek, xizmatlar sohasini (kommunal, shaxsiy va ijtimoiy) birlashtiradi. Iqtisodiyot diversifikatsiyasi va dinamikasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichida va tashqarisida noyob axborotlar aylanmasi shunchalik ko'p, milliy iqtisodiyotlar ichida axborot trafigi esa shu qadar salmoqli bo'ladi. Shu bois ishtirokchilar soni ko'p va IT xizmatlar keng tarqalgan bozorlarda raqamli iqtisodiyot jadal sur'atlarda rivojlanadi. Ayniqsa, bu transport, savdo, logistika va shu singari internet bilan faol ishlovchi sohalarga cheksiz qulayliklar yaratadi.<sup>4</sup>

Bugungi kunda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o'tish tezlik bilan amalgam oshirilmoqda. Mintaqamizning barcha hududlarida raqamli iqtisodiyotga o'tilmoqda. Buning uchun davlatimizda quyidagi shart-sharoitlar yaratilgan:

- ✓ ishlab chiqarishda monopoliyani yengish;
- ✓ iqtisodiy tarmoqlarni kengaytirish;
- ✓ mintaqada internet tarmoqlarini, turli veb-saytlarning rivojlanishini va tarqalishini ta'minlash;
- ✓ fuqarolarning komputer savodxonligini oshirish;
- ✓ fuqarolarni axborot-kommunikatsiya vositalari bilan muntazam tanishtirish;
- ✓ qonunchilikni mustahkamlash;
- ✓ tashkiliy-huquqiy mexanizm asoslarini ishlab chiqish;
- ✓ barcha sohalarni tubdan yangilash;

Aynan yuqoridagilarni barchasi to'la ta'minlanganda iqtisodiy o'sish mamlakatimiz bo'yicha eng

<sup>2</sup> Mowery, D. and Simcoe, T. 2002. Internetning kelib chiqishi va evolyutsiyasi, R. Nelson, B. Stayl va D. Viktor (tahr.), Texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar. Princeton, NJ: Princeton University Press, 229-64 betlar.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.

<sup>4</sup> “Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari qisqa yo'l” Sanobar Jumanova “Yangi O'zbekiston” gazetasi 17-sentabr, 2020-yil.

yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi.

Fikrimizcha raqamli iqtisodiyot iqtisodiy resurslar taqchilligi sharoitida raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan va boshqariladigan iqtisodiy faoliyat. Har qanday iqtisodiy tizim oldida turgan asosiy muammo bu resurslar taqchilligi bilan bog'liq raqamli iqtisodiyotda ham asosiy e'tibor ushbu muammoni hal qilishga qaratilmog'i lozim. Tadqiqot metodologiyasi Maqolada raqamli platformalarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini o'rganishda qiyosiy tadrijiy tahlil, yuqori va quyi o'rinlardagi kompaniyalarning bozor kapitallashuvi, transmilliy kompaniyalarning raqamli platformalar asosida rivojlanish tendensiyalari tahlilida statistik matematik, hududlar kesimida Internet qamrovi statistik guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi asosida internet trafiklaridan foydalanish holati dinamik tahlil asosida yoritib berilgan.<sup>5</sup>

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, raqamli iqtisodiyot uchun yaratilgan shart-sharoitlar zahirida katta kuch yotadi. Aholi orasida iqtisodiyot negizini yoyish, raqamli iqtisodiyotning asoslarini tatbiq qilish lozim. Iqtisodiy rivojlangan mamalakatlar tajribasidan foydalanib har bir sohaning infratuzilmasini qaytadan qurish, muomala vositalari asosida urbanizatsiyani yo'lga qo'yish kerak. Shundagina ko'zlagan maqsadga erisha olamiz.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. James, Paul. *Urban Sustainability in Theory and Practice: Circles of Sustainability*. London: Routledge, 2015. 53 bet.
2. Mowery, D. and Simcoe, T. 2002. *Internetning kelib chiqishi va evolyutsiyasi*, R. Nelson, B. Stayl va D. Viktor (tahr.), *Texnologik innovatsiyalar va iqtisodiy ko'rsatkichlar*. Princeton, NJ: Princeton University Press, 229-64 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
4. Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari qisqa yo'l Sanobar Jumanova Yangi O'zbekiston gazetasi 17-sentabr, 2020-yil.
5. Gulyamov, S.S. va b. (2019). *Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari*. - T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
6. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
7. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. *Вестник науки и образования*, (13-2 (91)), 28-30.
8. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА ПРОДУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. *ЎТМОИҲ ФАНЛАРДА ИННОВАСИЯ ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(2), 12-17.
9. Alisher Khudoynazarovich Shadiyev. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(9), 87–93.
10. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 23(23).
11. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 381-387.

<sup>5</sup> Gulyamov, S.S. va b. (2019). *Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari*. - T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.

12. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, 2(10), 798–804.
13. Supievná, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(6), 624-629.
14. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 21, 56-60.
15. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6(6), 161-165.
16. To'rayevna, S. N. . (2023). Biznes Sohasida Xodimlarni Topish Va Tanlash Bosqichlari. *Miasto Przyszłości*, 41, 184–190.
17. Sodiqova, N. (2023). DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY. *Modern Science and Research*, 2(10), 293–300.
18. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 535–541.
19. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 535–541.
20. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 446-449.
21. Bahromjon, X., & Nargiza, N. . (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. *Modern Science and Research*, 2(10), 805–811.
22. Алимova Ш. А., Ниёзова И. Н. Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур //Academy,(1 (64)). – 2021. – С. 55-57.
23. Alimova S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
24. Jumaeva, Z. Q. "REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN." *Central Asian Problems of Modern Science and Education* 2020.1 (2020): 48-55.
25. Bustonovna, D. Z. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES IN SHAPING THE E-COMMERCE ENVIRONMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 316-320.
26. Jumayeva, Z. (2023). THEORY OF MARKET EQUILIBRIUM, SUPPLY AND DEMAND. *Modern Science and Research*, 2(10), 740–743.